

IQLIM O'ZGARISHINING SUV RESURSLARIGA TA'SIRI

Toshmurodova Charos Rustamjonovna

*JDFU Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya) mutaxassisligi 2-kurs
magistranti*

Annotatsiya: *Iqlim o'zgarishining suv resurslariga ta'siri, suv sikli va iqlim o'rtasidagi bog'liqlik, iqlim o'zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan turli muommolar, suv resurslarining kamayishi, muzliklarning erishi va dengiz sathining ko'tarilishi shuningdek, suv resurslari bilan iqlim o'zgarishiga qarshi kurash qanday amalga oshirilishi mumkinligi haqida fikrlar keltirilgan.*

Abstract: *Impact of climate change on water resources, relationship between water cycle and climate, various problems arising due to climate change, depletion of water resources, melting of glaciers and sea level rise and also with water resources ideas on how to combat climate change are presented.*

Аннотация: *Влияние изменения климата на водные ресурсы, взаимосвязь между водным циклом и климатом, различные проблемы, возникающие из-за изменения климата, истощения водных ресурсов, таяния ледников и повышения уровня моря, а также идеи водных ресурсов о том, как бороться с изменением климата представлено.*

Kalit so'z: *Resurs, BMT, World Resources Institute, YUNISEF, YOTB, Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti*

Key word: *Resource, UN, World Resources Institute, UNICEF, YOTB, World Health Organization*

Ключевые слова: *Ресурс, ООН, Институт мировых ресурсов, ЮНИСЕФ, YOTB, Всемирная организация здравоохранения.*

Dunyoda suv ahamiyati judayam katta bo'lgan tabiiy resurs hisoblanib, tirik organizimlar hayot faoliyatining asosi hisoblanadi va u ko'plab vazifalarni bajaradi. Jumladan suv ulanish vositasi sifatida xalqlarni birlashtiruvchi rolga ega. Shuningdek suv butun dunyo bo'ylab bir xil qadrlanadigan resurs sifatida ta'kidlanadi, hamda uning hayot uchun zarur ekanligini va uning keng ko'lamda ta'sirini aks ettiradi.

Suvning umumiy vazifasi butun dunyo bo'ylab suv resurslarini saqlash va boshqarishdagi hamkorlikni ifodalaydi. Shu bilan birgalikda global barqarorlik va kelajakdagi umidlar uchun ahamiyatini ta'kidlaydi.

Hozirgi kunda global miqyosda suv taqchilligi jadal o'smoqda, ba'zi hududlarda esa suv yetishmasligi jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri dunyo bo'ylab suv resurslari notekis taqsimlanganligi, qurg'oqchilik va iqlim o'zgarishi sabablaridir.

Jahon resurslari instituti ekspertlari BMT va World Resources Institute baholariga ko'ra yildan yilga suv kamayib boraveradi 2050-yilga borib butun jahonda suvga bo'lgan talab 30 foiz o'sadi, binobarin suv bilan bog'liq mojarolar va siyosiy beqarorliklar kelib chiqadi.[1]

Olimlar yerdagi 3% chuchuk suv 25 yil ichida tugashini hisoblashdi va bu sayyora aholisining o'sishi tufayli sodir bo'ladi oxirgi 20 yil ichida global suv zaxiralari qisqarib bormoqda. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti hamda YUNISEFning bergan ma'lumotlariga

qaraganda bugungi kunga kelib sayyoramizning 26% aholisi iste'mol qilayotgan suvni xavfsiz deb bo'lmaydi. Ularning eng ko'p qismi esa Afrika davlatlariga to'g'ri keladi. 2030- yilga kelib dunyo aholisining 700 mlni suv muhojirlariga aylanadi.

Butun dunyo bo'yicha global suv monitoringini amalga oshiruvchi ISciences prognozlariga ko'ra, 2024-yil mart oyiga kelib Rossiyaning janubi-g'arbiy hududlarida, shuningdek, Markaziy Osiyoning sharqiy mintaqalari, jumladan, O'zbekiston sharqidagi hududlarda ham kuchli suv tanqisligi kuzatilishi mumkin. 2030 – yilga kelib mamlakatda 7 mlrd m³ suv yetishmasligi mumkin. O'zbekiston suv tanqis bo'lgan 33ta mamlakat qatoriga tushib qolish ehtimoli bor.

SUV ISTE'MOLI BO'YICHA JAHON DAVLATLARI REYTINGI


o'rin	hmmatlar	kunlik iste'mol (o'rtacha per bo'lib)	Yillik iste'mol (million metr kub)
1	Turkmaniston	10 781	27 950
2	Chili	5 295	19 430
3	G'ayana	4 288	1 485
4	O'zbekiston	4 154	51 500
5	Tojikiston	4 547	11 400
6	Qirg'iziston	4 081	8 007
7	AQSH	3 794	686 300
8	Eron	3 707	93 300
9	Estoniya	3 580	1 701
10	Qazq'oyiston	3 556	11 780
11	Qozog'iston	3 498	22 770
12	Finlandiya	3 407	8 582
13	Surinam	3 389	630
21	Kanada	2 717	35 730
23	Armaniston	2 689	2 847
40	Turkiya	2 023	58 950
51	Norvegiya	1 757	4 006
58	Italiya	1 546	34 180
60	Belgiya	1 543	8 005
69	Rossiya	1 131	69 900
71	Gurjiston	1 106	1 803
77	Xitoy	1 185	598 100
87	Ruminiya	882	6 514
89	Germaniya	855	35 330
98	Shveysiqa	785	2 088

O'zbekiston aholi jon boshiga suv iste'moli bo'yicha dunyoda 4-o'rinida bormoqda. O'zbekistonda har kuni har bir odamga o'rtacha 4754 litr suv to'g'ri keladi. Yillik iste'moli esa 54,5 mlrd metr kubga teng.

Bu borada reytingda qo'shnimiz Turkmaniston yetakchi. Umuman olganda, Markaziy Osiyo respublikalarining barchasi suv iste'moli bo'yicha jahondagi etakchi o'rinlarni egallagan [2].


2040 yilga borib Markaziy Osiyoning ayrim mamlakatlarida suv taqchilligi 2,8 baravarga oshadi [3].

“Mintaqada harorat o'rtacha global ko'rsatkichdan ko'proq



ko'tariladi. Bu muzliklarning tez erishi, cho'llanish, yerlarning sho'rlanishiga olib kelishi mumkin”, deydi YOTB raisi Nikolay Podguzov Olmaotadagi forumda. Markaziy Osiyo davlatlari suv resurslarini birgalikda va oqilona boshqarishi kerak bo'ladi. Suvni tejoychi texnologiyalar suvdan foydalanish samaradorligini 2 barobar oshirishi mumkin. YOTB a'zo mamlakatlarning suv, energetika va kommunal infratuzilmasiga 8,4 mlrd \$ sarmoya kiritmoqda.

Markaziy Osiyo aholisi 2050-yilgacha 90-100 million kishiga etishi va uning 50 mlni O'zbekistonliklarni tashkil etadi ammo suv zaxiralari o'zgarmaydi shuning hisobiga hududlarda suv resurslariga bo'lgan talab 3 baravarga, suv tanqisligi 25-30 foizga oshadi. Shuningdek, yaqin 5-6 yil ichida ekinlarni sug'orish uchun suvga bo'lgan ehtiyoj ham ortadi. Markaziy Osiyo aholisining 14 foizi ichimlik suviga ega emas [4].



Mutaxasislarning fikricha so'nggi 50-60 yil ichida O'zbekiston uchun chuchuk suvning asosiy ma'nbayi bo'lgan Markaziy Osiyodagi muzliklar maydoni qarib 30%ga qisqargan ularning hisob kitoblariga ko'ra 2050 yilga borib Markzaiy Osiyoda chuchuk suv tanqisligi mintaqada YIMning 11%ga pasayishiga olib kelishi mumkin.

Global isish oqibatida Qirg'iziston tog'laridagi muzliklar erib bityapti, O'rta Osiyoda yaqin yillarda 5 million iqlim qochog'i yurtlarini tashlab chiqib ketishi prognoz qilinmoqda. Sirdaryo havzasida suv oqimi 2-5, Amudaryo havzasida esa 10-15 foizga kamayishi va oqibatida O'zbekistonda suv tanqisligi kuchayishi prognoz qilindi. Bunga yana Afg'onistonda qurilayotgan Qo'shtepa kanalini ham misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

O'zbekistonning suv resurslari bugungi kunda 52-53 ming kub/kmni tashkil qiladi. Ammo

O'zbekiston aholisining bugungi ehtiyoji naq 62 ming kub/kmga teng. Shu sababli o'sib borayotgan mamlakat fuqarolariga 6-8 ming kub/km suv etishmasligi muammosi mavjud [5].

Suv resurslarini kelajak avlodlar uchun saqlash va barqaror boshqarish judayam muhim hisoblanadi. Shuning uchun yangi va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish kerak. Masalan, qishloq xo'jaligida suvni tejash texnologiyalari, kam suv ichadigan o'simliklar ekish, sanoat ishlab chiqarishda suvni qayta ishlash.

Suvning sifatiga e'tibor qaratish, toza ichimlik suvi yetishmasligi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar va sanitariya masalalarini oldini olish maqsadida turli innovatsiyalarni, suvni tozalash va desalinizatsiya texnologiyalarini, yangi irrigatsiya tizimlarini, va suvni tejash uchun aqlli tizimlardan foydalanishni joriy etish zarurdir.

Butun dunyoda yaqin kelajakda, balki kelgusi yillarda kutayotgan suv tanqisligi haqida ko'p fikrlar keltirilmoqda, lekin ko'pchilik bunga jiddiy muammo sifatida qaramayapti. Suv tanqisligi natijasida qurg'oqchilik avj oladi, ekinlar o'smaydi, mavjudlari xam quriy boshlaydi, xatto daraxtlar xam so'lib quriydi, ko'p turlar yo'qola boshlaydi, yashillik maydoni qisqara boraveradi, meva-sabzavot mahsulotlari narxi keskin oshadi, paxta, bug'doy dala maydonlari cho'lga aylanadi, xech kimga qurg'oqchil yer kerak bo'lmaydi, millionlab odamlar o'z uylarini tashlab suv bor joylarni izlab ko'chib ketishadi, suv yo'q joyda yashab bo'lmaydi. Shuning uchun biz hozirdanoq suvni tejashni, atrof muxitni asrashni boshlashimiz kerak, buning uchun davlat tashkilotlari yoki turli kanferensiyalardan yordam kutib emas o'zimiz harakat qilishimiz farzandlar ongida ekologik tarbiyani shakllantirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. (<https://t.me/+iWFwuTGG4AA3YzMy>)
2. (<https://www.worldometers.info/water/>)
3. YOTB(Yevrosiyo taraqqiyot banki) ma'lumotlari
4. Qirg'iziston Xavfsizlik kengashi kotibi Marat Imonqulovning Jahon banki ma'lumotlariga tayangan, xalqaro konferentsiyadagi nutqi.
5. AOK agentligida bo'lib o'tgan matbuot anjumanida "O'zsuvta'minot" AJ bosh muhandisi Anvar Muhammadaliev nutqi